

# OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KISLORODLI ORGANIK BIRIKMALAR BO'LIMINI O'QITISHDA ZAMONAVIY VOSITALARNI QO'LLASH USULLARINING SAMARADORLIGI

**Norberdiyeva Muyassar Sharipovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti kimyo fani o'qituvchisi  
sharipovamuyassar@gmail.com  
99 0185250

## ANNOTATSIYA.

Kimyo ta'lifi standarti o'qitishda o'quvchilarga beriladigan ta'lif va tarbiyaning mazmuni negizini belgilovchi ko'rsatkichlar, shuningdek talabalarning tayyorlarlik darajasidagi bilim va amaliy faoliyatlar darajasi me'yorini belgilaydigan mezon bo'lib hisoblanadi. Jumaladan o'zlashtirish qiyin yoki murakkab mavzularda ( Kislodli organik birikmalarni) o'zlashtirishda pedagogik texnologiyalardan va interaktiv metodlardan foydalanish kimyo fani darslarini yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi.

## KALIT SO'ZLAR:

Kimyo fani, amaliy mashg'ulotlar, birikmalar, kimyoviy jarayonlar, organik kimyo.

Kimyo darslarida jumladan kislodli organik birikmalar mavzusini talabalar bilim va ko'nikmalarini tekshirish va baholashda test sinovlari muhim o'rinni tutadi. Talabalardan kimyoviy testlarni olishda ularning o'zlashtirish darajasiga qarab, test topshiriqlarini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Test topshiriqlarida nazariy savollar bilan birga kimyoviy kislodli organik masalalardan foydalanish yaxshi samara beradi, chunki talabalar bunday masalalarni yechayotganda o'zlarining nazariy bilimlariga tayanib, mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradilar. Guruhdagi har bir talabalarning bilim va ko'nikmalariga qarab test materiallarini tuzish ularning o'zlashtirish darajasining yanada yaxshilanishiga olib keladi. O'zlashtirish saviyasi yaxshiroq bo'lgan o'quvchilarning test topshiriqlariga nisbatan murakkabroq masalalardan kiritish bilan ularning bilim saviyasini yanada oshirish mumkin. O'zlashtirish saviyasi o'rtacha bo'lgan talabalarga nisbatan yengilroq masalalar berib, keyinchalik ular e'tiborini ancha qiyinroq masalalarni yechishga qaratish mumkin. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun o'tilgan mavzulardagi asosiy kimyoviy tushunchalarni o'zida mujassam etuvchi yengil masalalar berib, ularni masalalarni yechish usullarini o'rganishga jalb qilish kerak. Buni quyida keltirilgan misollarda ko'rishimiz mumkin:

Kimyo darslarini xususan kislodli organik birikmalar mavzusini o'qitishda eksperimentdan foydalanish dars samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Lekin kimyoviy eksperimentdan foydalanish mumkin bo'lмаган mavzularni o'qitishda moddalar xossalardagi ayrim xususiyatlarni namoyon etuvchi jarayonlami hamda ba'zi reaksiyalar mexanizmlarini talabalar yaxshi tasavvur qilishlariga imkoniyat yaratadigan axborot texnologiyasidan foydalanish dars samaradorligini oshiruvchi muhim vosita ekanligi pedagogik tajribalaridanma'lum bo'ldi.

Ma'lumki, spirlarning xossalari ularning tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Spirlarning qaynash temperaturasi uglevodorodlarga qaraganda ancha yuqori. Spirlarning bu xossasi ular molekulalari orasida vodorod bog'ili hosil bo'lishi bilan tushuntiriladi. Spirlar molekulalari orasida vodorod bog'lanish hosil bo'lish jarayonining dinamik modeli animatsiya qilinadi va mavzuning elektron namunasiga kiritiladi. Spirlani o'qitish bo'yicha kompyuter darsi tayyorlanadi. Mazkur mavzuni o'qitishda animatsiya qilingan jarayonlar ekranga tushirib tushuntiriladi. Natijada talabalarda spirl molekulalari orasidagi vodorod

bog'lanishlar to'g'risida tasavvurlar paydo bo'ladi. Spirtlar molekulalari orasida vujudga keladigan vodorod bog'lanishlar spirtlarning kimyoviy va fizik xossalari asoslab beradi. Masalan, spirt molekulalari orasidagi vodorod bog'lanish ularning galogenid kislotalar bilan sust reaksiyagakirishisliiga sabab bo'ladi. Spirtlarning organik kislotalar bilan reaksiyasi mexanizmini multimedia usul yordamida aniqlash animatsiya qilib tushuntiriladi. Bu esa ushbu jarayonni talabalar yaxshi tushunib olishlariga yordam beradi. Bu jarayonning mohiyati shundan iboratki, reaksiya natijasida hosil bo'ladigan suv molekulasidagi kislород ko'p vaqtgacha spirtdan ajralib chiqadi, deb faraz qilinardi. Jarayonni tushunish uchun reaksiyaga tarkibida <sup>18</sup>O izotopi bo'lgan spirt olinadi. Eterifikatsiya reaksiyasida hosil bo'lgan murakkab efir tarkibiga kislород izotopi <sup>18</sup>O ning qilishi aniqlangan. Demak, spirtdagi kislород suv molekulasiga o'tmasdan murakkab efirda qolishi isbotlanadi

Kompyuter yordamida bu kislородли organik reaksiya jarayoni animatsiya qilib tushuntiriladi. Natijada, talabalarning jarayonni tasavvur qilishlari osonlashadi. Pedagogik amaliyat vaqtida spirtlar mavzusini o'qitganda tanlangan 1-guruhda dars an'anaviy usulda, 2- guruhda kompyuterdan foydalaniб, yuqorida ko'rsatilgan jarayonlar animatsiyasi tushuntirildi. Ikkala guruhda talabalarning bilimlarini nazorat qilish natijasi 2-guruuning o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lganligini ko'rsatdi. Bunga sabab, birinchidan o'quvchilaming vodorod bog'lanishi va eterifikatsiya jarayonlarini yaxshi tasvvur qilib olishlari bo'lsa, ikkinchidan talabalarning kompyuter darsiga bo'lgan qiziqishlari yuqori bo'lganligi bilan asoslanadi.

«Aqliy hujum» usulini joriy qilish. Innovatsion texnologiyalaming muvaffaqiyati o'qitilayotgan mavzu bilimlarini talabalar to'liq o'zlashtirib olishlari uchun ularning dars jarayonida birgalikda faol qatnashishlari asos qilib olinadi. Masalan, «Aqliy hujum» texnologiyasi talabalarning dars jarayonida faolligini oshiruvchi, qunt bilan ishlashlariga imkon beruvchi usuldir. Mazkur mavzu bilimlarini «Aqliy hujum» usulini tatbiq qilib o'rganish uchun darslik va boshqa manbalardan mavzuga oid bilimlarni o'quvchilarning mustaqil o'rganishlari talab etiladi. O'qituvchi esa mavzu bilimlarini o'zida qamrab oladigan bir yoki bir necha g'oyalar tanlaydi. Mavzuga ( Kislородli organik birikmalarga) oid g'oyalar bo'yicha dars jarayonida «Aqliy hujum» o'tkaziladi. «Aqliy hujum» texnologiyasi talabalar soni 20—25 ta bo'lgan amaliy mashg'ulotda olib boriladi. O'qituvchi talabalarga «Spirtlar molekulalari orasida vujudga keladigan vodorod bog'lanish» g'oyasini taqdim etadi. G'oyani hal qilishda talabalarning qaytargan javoblarini guruhdagi ikkita talaba yozib boradi. Bunda talabalar qaytargan takroriy javoblari hisobga olinmaydi. Noto'g'ri javob uchun talaba tanqid qilinmaydi. «Aqliy hujum» texnologiyasini amalga oshirish natijasida talabalarning faolligi oshadi. Mavzuga oid bilimlarni o'zlashtirib olishi yaxshilanadi.

«Klaster» usulini joriy qilish. Spirtlar mavzusini o'qitishda undagi tushuncha va bilimlar bayon qilingandan so'ng darsni mustahkamlash maqsadida innovatsion texnologiyaning Klaster usuli joriy qilinadi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, doskaga yoki oq qog'ozning o'rta qismiga mavzuga oid tayanch tushuncha yoki biror spirtning nomi yoziladi. Klaster tuzishda har bir talaba yoki kichkina guruhdan iborat talabalar birgalikda qatnashishi mumkin. Masalan, guruhdagi 20 ta talaba 5 tadan 4 guruhga bo'linadi. 1-guruhga vodorod bog'lanish, 2-guruhga metil sperti, 3-guruhga etil sperti, 4-guruhga 1 atomli spirtlar tushunchalari beriladi. O'quvchilar berilgan ma'lumotni oq qog'ozning o'rta qismiga yozib, u bilan bog'liq holdagi moddaning xossasi, tuzilishi, olinishi, ishlatilishi bo'yicha tarmoqlami tuzib chiqadilar. Masalan, metil sperti tushunchasi bo'yicha tarmoqlar tuzishni keltiramiz.

Kimyo o'qitishning metodlari turli usullarda olib boriladi. Metod – bu «yo'l» demakdir. U dogmatik, illyustrativ, evristik bo'lishi mumkin.O'qitishning dogmatik metodi o'qituvchining materialni og'zaki, ko'rgazma vositalardan foydalanmay, dalil isbotsiz va faqat talabalarni bu materialni takrorlashga va yod olishgagina jalb etish bilan bayon qilishdan iborat. O'qitishning ilyustrativ metodi- o'qituvchi oquvchiga tayyor bilimlarni tushintirib, har xil xususiy metodlarni qo'llaydi. Ular: o'qituvchining tushuntirishi, darslik bilan ishslash, magnitafon va hakozolar bilan ishslash. Bunday ko'rgazmalar eksperiment, modellar, ekran qo'llanmalari jadvallardan foydalilanadi. O'qituvchi laboratoriya tajribalarini ko'rsatib tushuntirib beradi. Ilyustrativ metodda o'qituvchi ayrim amaliy mashg'ulotlarni bajarish texnikasi va metodikasini bajarish tartibini qo'llaganda ham foydalanadi. Bu metod talabalarda minimum bilimlar zapasi yig'ilgach kengroq qo'llaniladi. Talabalarda amaliy o'quv ko'nkmalarini shakllantirish, tajribalarini bajarib ko'rsatishning namunasi sifatida: Probirkaga eritmani qo'yish, qoshiqchadagi eritmani bo'g'latish kabilarni tushuntirish va bevosita amalda ko'rsatishni aytishimiz mumkin.

O'qitishning illyustrativ metodi - kimyo o'quv kursining boshlangich bosqichida ko'proq qo'llaniladi. Bu davrda o'quvchilarda ko'nikma va malakalar yetarli bo'lmanligi sababli o'qituvchi tajribalarni o'zi ko'rsatib tushintirib beradi. Bu metoddan talabalar tajribalarni mustaqil bajarish va izohlab berishda ham keng foydalanadilar.

O'qitishning evristik metodi: o'quvchilarning o'zlari qiladigan ish asosida tuziladi, talabalar bevosita o'qituvchining faol ishtiroki ostida kashf qiladilar. Bu metodning "evristik" deb nomlanishi ham uning lug'aviy mazmuniga bog'liq. Masalan, ushbu metod ishtirokidagi tajribalarda xususan kislorodli organik biirkimlar xossalaring umumiy tavsifi va xususiyatini aniqlashda qo'llaniladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdusamatov A., Mirzayev R., Ziyayev R. Organik kimyo. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. T., «O'qituvchi», 2010.
2. Kimyo o'qitish metodikasi. Niyoz G'iyosovich Rahmatullayev, Hojiqul Tovboyevich Omonov, Shavkat Miromilovich Mirkomilov .Toshkent 2013.